


**«Ahmad amaking saboqlari» kitobi nashrdan
chiqdi**



15:47 / 07.05.2019 2922

«Ahmad amaking saboqlari»

(kiril va lotin alifbosida)

Ushbu kitobcha bolalarni axloq-odobli, ilm o'rganishga rag'batli, yomon illatlardan qochuvchi qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, muallif o'z risolasida halollik, poklik, ota-onaga qanday ehtiromda bo'lish va islomiy qadriyatlar haqida ham yoshlar dunyoqarashiga mos ma'lumotlar beradi.

AHMAD AMAKINING BOLAJONLARGA MAKTUBI

Bismillahir rohmanir rohiym.

Assalomu alaykum, aziz bolajonlarim , ko'zimning oq-u qarolari! Sizlar ko'pgina kitoblarni o'qib chiqqansiz, ulardan odobli, yaxshi bola bo'lish uchun nimalar qilish kerakligini o'rgangansiz. Bugun siz qo'lingizga olgan ushbu «Ahmad amakining saboqlari» kitobchasi sizlarga judayam zarur kitob. Undagi saboqlar hozir ham, kelajakda ham hayotingizda ko'p marta kerak bo'ladi.

Bu saboqlar sizlarga qanday yashash lozimligini o'rgatadi. Bilmagan, eshitmagan narsalaringiz bilan tanishtiradi. Yaxshilik nimaligini tushuntirib, yaxshilik qilishga chorlaydi. Yomonlik nimaligini bildirib, yomon ishlardan qaytaradi.

Shuning uchun ularni erinmay, qunt bilan, diqqat bilan o'qib chiqing! Tushunmay qolgan joylaringizni kattalardan so'rab oling. O'qiganlaringizning ma'nosini anglab, eslab qolishga harakat qiling! O'zingiz to'la tanishib chiqqandan so'ng kitobchani aka-ukalaringizga, opa-singillaringizga, do'st va qarindoshlaringizga ham o'qigani berib turing! Shunday qilsangiz, savobga (Xudoning mukofotiga) sazovor bo'lasiz, xo'pmi? Sizlarni qattiq yaxshi ko'ruvchi Ahmad amakingiz.

Muallif: Ahmad Muhammad Tursun

Nomi: «Ahmad amakining saboqlari»

Nashriyot: «Hilol» nashriyot-matbaasi

Sana: 2019-yil

Hajmi: 112 bet

O'lchami: 84x108 1/32

ISBN: 978-9943-5476-2-9

Muqovasi: yumshoq

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2018 yil 30-noyabrdagi 6518-raqamli xulosasi asosida chop etildi.